O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI JALAQUDUQ TUMANI HOKIMINING QARORI

171100 Jalaquduq shahar, O‘zbekistonko‘chasi62-uy, tel:74-755-23-60, faks: 755-17-67 e-mail: Jalaquduq @andijon.uz

2024 - yil 15 - yanvar 3-1-21-Q/24 Jalaquduq tumani hokimligi

Tumanda 2024 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq tumanda transport vositalarining 2024 yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida hamda Jalaquduq tumani IIB JXX YHXG katta insektorining 2023 yil 18 dekbr kungi 38/7/-129-sonli xatini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2.Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Transport vositalari qo‘yidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan

(haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari -bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4.Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentyabr- 31 oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5.Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi raxbari(S.Mavlonov)ga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6.Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7.Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3- bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Aripov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **H.Latipov**

Jalaquduq tuman hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
3-1-21-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalarini 2024 yil uchun majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

1.	S.Mavlonov	komissiya raisi tuman IIB JXX YXXG katta inspektori kapitan
A ‘ Z O L A R I:		
2	kelishilgan	“Uzavtodaryotrans” agentligi Andijon viloyati xududiy bo‘limi
3	Adiljanov Baxtiyor	Tuman avtoxavaskorlar jamiyati raisi
4	Tulanov Alibek	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi
5	Burhonov Abboshon	tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘ining o‘rinbosari
6	kelishilgan	tuman “Agrosug‘urta” tashkiloti
7	Mannobojonov Jahongir	tuman MIB xodimi
8	Holto‘raev Muhiddin	“Vodiyneftgaz” saroyi mexanig

Jalaquduq tuman hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
3-1-21-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumanda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Xo‘jalik va tashkilot nomi	Transport vositalar soni			Texnik ko‘rikdan o‘tkazish vaqti	O‘tkazila digan kun	manzil
		avto mashina	tirkama	moto			
1.	“Umid-2000” XK	6			8-00dan 11-00gacha	14.03.2024	avtogaraj
2.	Agrokimyo ta’minot AJ tuman bulimi	12			8-00dan 11-00gacha	15.03.2024	avtogaraj
3.	Zavraqbaza XK	4			8-00dan 11-00gacha	16.03.2024	avtogaraj
4.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	10			8-00dan 11-00gacha	18.03.2024	avtogaraj
5.	“Xududiy gaz Andijon” Jalaquduq tumangaz bo‘limi	4			8-00dan 11-00gacha	18.03.2024	avtogaraj
6.	“Vatanparvar” avto maktabi	19			8-00dan 11-00gacha	19.03.2024	avtogaraj
7.	“Baxt” XK	20			8-00dan 11-00gacha	22.03.2024	avtogaraj
8.	Neft mahsulotlari bazasi tuman filiali	42			8-00dan 11-00gacha	23.03.2024	avtogaraj
9.	Tuman hokimligi	2			8-00dan 11-00gacha	24.03.2024	avtogaraj
10	“SAMO” XK	1			8-00dan 11-00gacha	25.03.2024	avtogaraj
11	“SPZ BAERINGIZ” MChJ (sobiq DPZ-27)	21			8-00dan 11-00gacha	26.03.2024	avtogaraj
12	Jalaquduq DUK	10			8-00dan 11-00gacha	28.03.2024	avtogaraj
13	Tuman Tibbiyot birlashmasi	15			8-00dan 11-00gacha	29.03.2024	avtogaraj
14	Sobiq 152-avtokorxona avtogaraji	8			8-00dan 11-00gacha	30.03.2024	avtogaraj
15	“Jalaquduq hamkor trans” MChJ	20	8		8-00dan 11-00gacha	31.03.2024	avtogaraj
16	Jalaquduq TAYB	8			8-00dan 11-00gacha	01.04.2024	avtogaraj
17	4-XTB	49			8-00dan 11-00gacha	02.04.2024	avtogaraj
18	Sobiq “Bunyod M” korxonasi	3			8-00dan 11-00gacha	04.04.2024	avtogaraj
19	Sobiq Jalaquduq SIChJ	2			8-00dan 11-00gacha	05.04.2024	avtogaraj
20	AN OXJ avtokolonna 6-filiali	20			8-00dan 11-00gacha	06.04.2024	avtogaraj
21	Yorqishloq SIChJ	3			8-00dan 11-00gacha	08.04.2024	avtogaraj

22	Kichik korxonalar	15			8-00dan 11-00gacha	08.04.2024	YHXGda
23	Oyim MMTP	3			8-00dan 11-00gacha	9.04.2024	avtogaraj
24	DSENM	4			8-00dan 11-00gacha	11.04.2024	avtogaraj
25	Kurgantex MChJ	8			8-00dan 11-00gacha	12.04.2024	avtogaraj
26	Madaniyat bo‘limi	1			8-00dan 11-00gacha	13.04.2024	avtogaraj
27	Andijon Davlat Universiteti filiali	3			8-00dan 11-00gacha	14.04.2024	avtogaraj
28	Fermerlar uyushmasi	22			8-00dan 11-00gacha	15.04.2024	YHXGda
29	Toshmatov MMTP	4			8-00dan 11-00gacha	16.04.2024	avtogaraj
30	Oxunboboev pochta	2			8-00dan 11-00gacha	18.04.2024	avtogaraj
31	TOPAZ XK	2			8-00dan 11-00gacha	19.04.2024	avtogaraj
32	Texnolog XIChK	4			8-00dan 11-00gacha	20.04.2024	avtogaraj
33	1-sonli kasb-xunar maktabi	2			8-00dan 11-00gacha	21.04.2024	avtogaraj
34	Ne’matjon Mirzaev savdo MChJ	3			8-00dan 11-00gacha	22.04.2024	avtogaraj
35	Tillo invest tekstil XK	3			8-00dan 11-00gacha	23.04.2024	avtogaraj